

PEDOGOGIK JAMOA BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK VAZIFALARI

Abduvaitova Charos Baxtiyor qizi

*Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani 11-umumiyl o'rta ta'lim maktabi
psixolog*

Annotatsiya. Maqolada pedagogik jamoa haqida ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga pedagogik jamoa va uni shakllantirish yo'llari, uslublari yoritilgan. Pedagogik jamoaning ruhiy muhitini tahlil qilish usullari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Jamoa, pedagogik jamoa, jamoa barcha a'zolari, pedagogik jamoani boshqarish, ijtimoiy umidlar, avtoritar, demokratik, liberal.

Jamoaning birligi, uni a'zolarining do'stona birlashishi- ichki munosabatlarda ayrim tarbiyalanuvchilarni tanqid qilish va jazolash mumkin, lekin ta'sir ko'rsatishning maxsus shakllaridan tashqarida har bir tarbiyalanuvchiga tegishli baho berish, uni begonalar oldida himoya qilish, unga hech qanday ozor yetkazmaslik shart hisoblanadi. Jamoa barcha a'zolarining himoyalanganligi o'ta muhimdir. Har bir tarbiyalanuvchi, u qanchalik zaif, kuchsiz bo'lmasin, o'zining yakkaligi yoki himoyasizligini his etmasligi kerak.

Pelagogik jamoada o'zaro manosabatlarning rasmiy va norasmiy tuzilishlari ajratilib ko'rsatiladi. Bu yerda har ikki tuzilish shaxs jamoada egallashi mumkin bo'lgan nuqtai nazardangina qarab chiqiladi.

Pedagogik jamoani boshqarish vaziyatlarini tashkil etish pedagog tomonidan sinfda jamoa faoliyatini tanlash va tashkil etishdan boshlanadi, chunki

Modern education and development

bu jamoadagi ayrim guruqlar va ularning peshqadamlari pozitsiyalarini o‘zgartirish va mustahkamlashga qaratilgan birinchi qadamdir. Har bir shaxs kamolotining va butun jamoaning yuqori ishchanlik qobiliyatini rag‘batlantiruvchi ruhiy muhitni tashkil etayotganda, guruh a’zolari orasidagi o‘zaro munosabatlarni va unda hukmron bo‘lgan qadriyatlarni tartibga solishdan boshlash kerak.

Jamoa so‘zi arabcha “jam’o” so‘zidan olingan bo‘lib, yig‘ilma, omma, birqalikdagi majlis, birlashma, guruh ma’nolarini anglatadi.

Pedagogik jamoaning asosiy belgilari ichki, ishonchili xotirjamlikning namoyon bo‘lishi, doimiy tetiklik, harakat qilishga tayyorlik muhim hisoblanadi. Jamoa har bir a’zosida o‘z qadr-qimmatini bilish tuyg‘usining mavjudligi, o‘z jamoasi bilan faxrlanish tuyg‘usi bo‘lishi lozim. Munosabatlarning rasmiy tuzilmasi - bu tashqaridan, jamiyat tomonidan berilgan va ushbu jamoa faoliyat ko‘rsatishi zarur bo‘lgan holatlar (pozitsiya) sistemasidir.

Norasmiy shaxslararo munosabatlar sistemasida holatlar har bir o‘quvchining o‘ziga xosligi va ushbu sinfning xususiyatlari bilan belgilanadi. Boshlangich o‘quv maskanidayoq bolalarning sinf jamoasida muayyan, ularni jalg etuvchi holat (pozitsiya) ni, ya’ni yetakchi, eng yaxshi o‘quvchi, eng yaxshi sportchi va hokazo holatlarni egallashga intilish kuzatiladi.

Ijtimoiy holat ikki o‘lchov: shaxsning ijtimoiy xulq-atvori va atrofdagilarning ijtimoiy umidi bilan xarakterlanadi.

Ijtimoiy xulq-atvor - bu real hatti-harakatlar bo‘lib, ular tufayli odam o‘zini istalgan rolda qaror toptiradi.

Ijtimoiy umidlar - bu atrofdagilarning ushbu odam holatiga munosabatlaridir. Agar kimdir o‘zini mazkur holatda qaror toptirgan bo‘lsa, atrofdagilar uni bu holatga “bog‘lab qo‘ygandek” bo‘ladilar. O‘quvchilar yuqori sinfga o‘tgani sayin o‘z ijtimoiy holatlarini odatda bilibgina qolmasdan, shu bilan

birga ko‘pincha ularni o‘zgartirishga ham intiladilar. To‘g‘ri, tarkib topgan ijtimoiy umidlar bunga xalaqit beradi.

Ijtimoiy umidlar barqaror bo‘lganligi uchun o‘smir vaqtini o‘tkazib yuborgan holatni o‘quvchining o‘zi o‘zgartirishi qiyin bo‘ladi, bu yerda pedagogning yordami kerak.

Pedagogik jamoa ichki holatlari orasida peshqadam, yetakchining holati alohida o‘rin turadi. Bu guruh oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarili bilan bog‘liqdir. Aynan peshqadamlar jamoaning normalari va qadriyatlarini belgilaydi. Peshqadam o‘z holatining obro‘ligi bilan o‘z fikrini o‘tkazish uchun katta imkoniyatlarga ega. Bolalar peshqadam o‘quvchilarga ishonganilari uchun ham ularga taqlid qiladilar. Jamoadagi psixologik muhit ko‘p jihatdan kim peshqadamligiga bog‘liq bo‘ladi.

Pedagogik jamoaning shaxsga ta’siri samaradorligi shaxsning jamoadagi kayfiyati bilan belgilanadi. Bunga quyidagilar kiradi: shaxsning faoliyat, o‘zaro munosabatlar, rahbarlikdan konikish, shaxsning mazkur jamoadagi himoyalanganligi, uning ichki xotirjamligi. Bularning hammasi hissiy bexdudlik atamasi bilan ta’riflanadi va u bola shaxsi rivojlanishining uni hayotidagi ilk bosqichlaridanoq majburiy sharti hisoblanadi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, ruhiy muhitning mohiyati shundan iboratki, jamoada tarkib topgan o‘zaro munosabatlar jamoa a’zolarining qadriyatları, axloq normalari va manfaatlari bilan belgilanadigan alohida hissiy-ruhiy tusga ega bo‘ladi. Har bir shaxs faolligi darajasi jamoaning shaxsga ta’siri singari shaxs ushbu jamoada hissiy bexbudlikni qanchalik boshidan kechirishi bilan belgilanadi.

Pedagogik jamoadagi o‘zaro munosabatlarning norasmiy sistemasini bilmay turib pedagog jamoa rivojlanishini boshqara olmaydi. Pedagogik jamoaning ruhiy muhitini tahlil qilayotganda:

- guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar qandayligini;

Modern education and development

- jamoada pedagogik talablarga qarshi kayfiyatdagi guruhlar bor yoki yo‘qligi;

- rasmiy jamoa qilayotgan (ya’ni saylab qo‘yiladigan) faollar a’zolari kimlar ekanligi;

- saylab qo‘yiladigan faollar real (ya’ni, jamoaning meyorlari va qadriyatlarini belgilab beradigan) faollar deb hisoblanishi yoki hisoblanmasligini;

- har bir bolaning jamoadagi mavqeい qandayligini bilish zarur.

Peshqadamlarning ko‘rsatadigan faoliyati jamoa uchun ahamiyatli va ichki zaruriyatga aylanadi. Bu qoida jamoaning boshqarishga doir pedagogik vazifalarni xal etishda muhim ahamiyatga egadir. Pedagog jamoa faoliyati asosida jamoada muayyan qadriyatlarni mustahkamlashni nazarda tutadi va peshqadam ularning namunasi bo‘lib qoladi. O‘z peshqadamlarni ko‘rsatmaydigan faoliyat rasmiyatchilik bilan bajariladi va uning asosidigi qadriyatlarga ijobjiy munosabatlarni mustahkamlaydi.

Fanda insonning hayotdagi bilim, ko‘nikma va malakalarini egallashlari bo‘yicha bir qancha tushunchalar mavjud. Bu o‘quv faoliyati, ta’lim o‘qish va o‘rganish kabi tushunchalardir.

O‘quv faoliyati bu avvalo shunday faoliyatki, uning natijasida avvalo o‘quvchining o‘zida o‘zgarish yuzaga keladi. Uning mahsulot esa turli xil motivlar bilan qurilgan bo‘lishi darkor. Bu motivlar bevosita faoliyat mazmuniga bog‘liq bo‘lishi bilan bir qatorda o‘quvchi shaxsining o‘sishi yoki rivojlanishi bilan ham bog‘liq bo‘lishi ham mumkin.

Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligidagi o‘quv faoliyati, o‘qituvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonidir.

O‘qish va o‘rganish ham o‘quv faoliyatiga taalluqli tushunchalardan bo‘lib, unda asosiy diqqat o‘quvchiga qaratiladi. Bunda kerakli bilim, ko‘nikma va

Modern education and development

malakalarni egallahash uchun o‘quvchi tanlagan o‘quv harakatlari asosiy hisoblanadi.

O‘quv faoliyati tuzilishining birinchi elementi o‘quv-bilish motivlari, ya’ni shaxsiy rivojlanish motivlari hisoblanadi. O‘quv faoliyatining ikkinchi ahamiyatliroq bo‘lgan elementi bu o‘quv topshiriqlaridir.

O‘quvchilar guruhida o‘zaro munosabatlarni boshqarish muhim hisoblanadi. Birinchi bor o‘quv maskaniga kelgan o‘quvchi hali o‘zini to‘liq anglashi va o‘zi hattiharakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o‘qituvchigina o‘quvchiga me’yorlar qo‘yishi, ularning hatti-harakatlarini baholashi mumkin. O‘z hatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. O‘qish jarayonida o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan qo‘yiladigan yangi shartlarni qabul qiladilar va ularning qoidalariga to‘la amal qilishga harakat qiladilar. O‘quvchi uchun o‘qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanib, bu holat uning nafaqat guruhdagi, balki, umuman tengdoshlari bilan bo‘ladigan munosabatiga, bu munosabat esa o‘z-o‘zidan oilasidagi munosabatlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, bu munosabatlar uning o‘quv faoliyati muvaffaqiyatini ham belgilab beradi. O‘qituvchining o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatishi va munosabatining quyidagi uslublari mavjud.

Avtoritar uslub: bu qattiqqo‘llik bo‘lib, bunda o‘qituvchi o‘quvchilarini so‘zsiz o‘ziga bo‘ysunishlarini talab etadi. Lekin, nima uchun qattiqqo‘llik qilayotganini yoki o‘quvchilariga nima uchun o‘zlarini shunday tutishlari lozimligini tushuntirib bermaydi, shuningdek, o‘quvchilarni o‘z hatti-harakatlarini mustaqil boshqarishga ham o‘rgatmaydi. O‘qituvchi dars davomida o‘quvchilaridan jim utirishini, savollarga doimo qo‘l ko‘tarib, o‘qituvchining ruxsati bilan javob berishini, o‘qituvchining ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishini talab etadi.

Bunday pedagoglar o‘quvchilarning qiziqishlari asosida emas, balki asosan o‘quv rejasi asosida dars o‘tadilar. Dars davomida ham bahs-munozara uchun deyarli imkoniyat yaratilmagan xolda asosan o‘qituvchining fikri singdiriladi.

Modern education and development

O‘quvchilari bilan muomala munosabatda ham ularning individual psixologik xususiyatlari, jumladan, nerv tizimining qo‘zgaluvchanlik darajasini ham e’tiborga olmaydilar. Bu uslub o‘qituvchini sinfdan, o‘quvchidan uzoqlashtiradi. Emotsional sovuqlik guruhda intizomli o‘quvchida yakkalanish, xavotirlik, himoya kilinmaganlik hissini ham yuzaga keltiradi. Bu uslub guruhda yuqori o‘zlashtirish ko‘rsatkichini berishi, lekin bu o‘zlashtirish, asosan, xotira evaziga bo‘lib, lekin mustaqil tafakkur, ijodkorlik, hozirjavoblik kabi xususiyatlarni rivojlanishdan ortda qolishiga sabab bo‘ladi, unda doimiy xavotirlik o‘ziga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.

Imperativ uslubdagi o‘qituvchining o‘quvchilari guruhda bo‘lmagan vaqtarda o‘z-o‘zini boshqarish malakasi bo‘lmaganligi uchun ham intizomga mutlaqo bo‘ysunmaydilar. Bu, asosan, to‘polonda namoyon bo‘ladi. Bu uslub o‘qituvchining mustahkam irodasini ko‘rsatadi, lekin bu irodada o‘quvchiga nisbatan muhabbat hamda o‘quvchining "ustozim meni yaxshi ko‘radi" degan fikri emas, balki qo‘rquv hissi mavjuddir.

Demokratik uslub o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida do‘stona munosabat o‘rnatalishiga asos bo‘ladi. Darsdagi intizom majburiy emas, balki muvafaqqiyatga erishish garovi sifatida o‘quvchilar ijobiy emotsiyani, o‘ziga ishonch, o‘z muvafakkiyati, yutuqlaridan quvonishi, do‘stlari bilan faoliyatda hamkorlik hissini beradi. Demokratik uslub o‘quvchilarni birlashtiradi. Shu bilan birga o‘zining faoliyati natijalariga qiziqish uyg‘otgan holda o‘zi uchun o‘zi harakat qilishi lozimligini anglatadi. O‘zini-o‘zi boshqarishga, o‘z hatti-harakatini o‘zi nazorat qilishga o‘rgatadi. Har bir ishga mas’uliyat bilan yondoshish hissi o‘qituvchining shu yoshdagi bolalar bilan demokratik muomala munosabati asosidagina shakllanadi.

Liberal uslub kasbiy layoqati yo‘q bo‘lgan o‘qituvchilarga xos bo‘lgan uslubdir. Bunday o‘qituvchi dars jarayonini yaxshi tashkil eta olmaydi. Bunday darslarda har bir o‘quvchi o‘z tarbiyalanganlik darajasiga qarab o‘zini tutadi. O‘quvchi o‘z majburiyatlarini yaxshi his qilmaydi. Muomala munosabatdagi

liberal uslub psixologiya va pedagogika fanlariga mutlaqo zid uslub hisoblanib, bolalar shaxsini shakllantirish va tarbiyalash jarayonida bu usulni qo'llab bo'lmaydi. Shunday qilib, o'quvchilar bilan muomala-munosabatdagi imperativ uslub, asosan, ma'lum bir chegaralarga asoslangan holda o'quvchi shaxsi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demokratik uslub o'qituvchidan muomala-munosabatda juda katta kasbiy mahoratni talab etgan xolda, o'quvchi shaxsining ijobiy tomonlarini rivojlantiruvchi yagona uslub hisoblanadi. Liberal uslub esa o'quvchini emotSIONAL zo'riqtirmaydi, lekin uning shaxsi rivojiga ham samarali ta'sir ko'rsatmaydi. O'qituvchining munosabat uslubi o'quvchining faolligiga bevosita ta'cir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyev Sh. M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma maslisidagi nutqi.- T.: O'zbekiston, 2016.-56 bet.
2. Mirziyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O'zbekiston, 2017.-102
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. T. Ma'naviyat. 2008. 176 –bet.
4. Djurayev R. Ta'lim menejmenti. T.: Voris-nashriyot. 2006 yil.
5. Safarova R. O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini tashkil etish tamoyillari va parametrlari. T.: Fan-texnologiya. 2013.

Modern education and development

6. Turg‘unov S. O‘qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish.

T.: Sano-standart. 2012.

7. Baxranovna, M. R. (2022). International System Assessment of Reading Literacy of Primary School Pupils Pirls. International Journal of Culture and Modernity, 14, 35-38.

8. Safarova R. O‘quvchilarda o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirishga oid nazariy-amaliy yondoshuvlar. T.: Fan-texnologiya. 2012.